

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

DAVLATOVA FATIMA ISRAILOVNA

**GILBERT FAZOLARIDA FURYE INTEGRALLARINING
OPTIMAL APPROKSIMATSIYASI**

**01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)**

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-
mathematical sciences**

Davlatova Fatima Israilovna

Gilbert fazolarida Furiye integrallarining optimal approksimatsiyasi..... 3

Давлатова Фатима Исраиловна

Оптимальная аппроксимация интегралов Фурье в гильбертовых
пространствах..... 21

Davlatova Fatima Israilovna

Optimal approximation of Fourier integrals in Hilbert spaces..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

DAVLATOVA FATIMA ISRAILOVNA

GILBERT FAZOLARIDA FURYE INTEGRALLARINING
OPTIMAL APPROKSIMATSIYASI

01.01.03 – Hisoblash matematikasi va diskret matematika
(fizika-matematika fanlari)

fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/FM1182 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://ik-fizmat.nuu.uz/>) va «Ziyonet» ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Shadimetov Xalmatvay Maxkambayevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Normurodov Chori Begaliyevich**
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Boltayev Aziz Kuziyevich
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 raqamli Ilmiy kengashning «___»_____ 2025 yil soat___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.M. Aripov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

Z.R. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d.,
professor

R.D. Aloyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, f.-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy – amaliy tadqiqotlar natijasida haqiqiy argumentli kompleks qiymatli uzluksiz funksiyalar fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalarni qurish, aniq integrallarni taqribiy hisoblash va qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida kuchli tebranuvchi integrallarni sonli hisoblashda kvadratur va kubatur formulalar nazariyasi asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu formulalar, ayniqsa, kvant kimyosi, tasvirlar tahlili, elektrodinamika, kompyuter tomografiyasi, suyuqliklar mexanikasi, matematik fizika, elektron texnika va elektromagnit nurlanish kabi sohalarda differensial va integral tenglamalarni sonli yechish, ularni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan differensiallanuvchi funksiyalar sinfida eksponensial funksiyalarga aniq bo‘lgan hosilali, eksponensial vaznli optimal kvadratur formulalarni tadqiq etish, ma’lum Gilbert fazolarida qurilgan formulalarning xatoligini baholashda foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda Gilbert fazolarida aniqligi yuqori bo‘lgan eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar qurishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada tasvirlar tahlili, elektrodinamika, kompyuter tomografiyasi, suyuqliklar mexanikasi va elektromagnit nurlanish kabi ko‘plab sohalarda hosil bo‘ladigan differensial va integral tenglamalarni sonli yechishda, mavjud metodlardan foydalanib funksiyalarning turli sinflarida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar qurish va matematik masalalarning yechimlarini yetarlicha aniqlikda hisoblash imkonini beruvchi metodlarini yaratishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur, kubatur, interpolasyon formulalar qurish va ularning xatoliklarini ma’lum Gilbert fazolarida baholash hamda tasvirlar tahlili, kompyuter tomografiyasi masalalarini sonli analitik yechish usullarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2020–2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish, jumladan, “Funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar, matematik fizika, matematik modellashtirish, ehtimollar nazariyasi, matematik statistika, hisoblash matematikasi va diskret matematika” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan¹. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, ma’lum Gilbert fazolarida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalarni qurish ularning xatolik funksionallari normalarining kvadratini hisoblash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvar PF-60 sonli “2022-2026-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 7 – maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy – tadqiqotlarni rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ – 4708 – sonli qarori.

yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevral PQ-2789-sonli "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-aprel PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 27-aprel PQ-3682-sonli "Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 7-may PQ-4708-sonli "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. «Matematika, mexanika va informatika» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, fan va texnika sohasidagi ko'plab muammolar, ayniqsa, kuchli tebranuvchi funksiyalarga ega bo'lgan maxsus integrallarni hisoblashga, xususan, Furye koeffitsiyentlari va Furye integrallari kabi matematik ifodalarni aniqlashga olib keladi. Ushbu turdagi integrallarni taqribiy hisoblash uchun bir qator maxsus usullar va algoritmlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular hisoblash matematikasida muhim o'rin tutadi. Bu usullar qatoriga Faylon usuli, asimptotik yoyish usullari, Levinning kollokatsiya usuli, eng tez tushish usuli, shuningdek, optimal kvadratur va kubatur formulalari kabi yondashuvlarni misol qilib keltirish mumkin. Faylon usuli dastlab integrallash oralig'ida funksiyaning bo'lakma-bo'lak yaqinlashtirishga asoslangan holda taklif etilgan bo'lib, bu usul kuchli tebranuvchi integrallarni hisoblashda samarali yondashuv sifatida keng tan olingan. Keyingi yillarda ushbu sohada sezilarli yutuqlarga erishildi va turli xil kuchli tebranuvchi funksiyalarga ega integrallarni taqribiy hisoblash uchun bir qator yangi usullar ishlab chiqildi. Bularga Faylon tipidagi formulalar, Klenshou-Kurtis-Faylon tipidagi formulalar, Levin tipidagi usullar, takomillashtirilgan Klenshou-Kurtis usullari, umumlashtirilgan kvadratur formulalari kiradi. Ushbu usullar nafaqat hisoblash aniqligini oshirish, balki hisoblash jarayonining samaradorligini ham sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi. So'nggi o'n yilliklarda ushbu sohada faol tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, Abbas S. K., Sohrabi S., Ranjbar H., Shivaram K.T., Prakasha H.T., Lovetskiy K.P., Sevastianov L.A., Hnatič M., Kulyabov D.S., He G., Liu Y., Zaman S., Suliman, Siraj-ul-Islam., Yunyun Ma Yuesheng Xu, Jing Gao, Iserles A., Deaño A., Huybrechs D., Wang Y., Xiang Sh., Huybrechs D., Kuijlaars A., Lejon N., kabi olimlarning ilmiy ishlarida ushbu usullarni rivojlantirish va qo'llash bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilgan. Ularning ishlari funksiyalarning turli fazolarida Faylon, asimptotik yoyish, Levin kollakatsiya va eng tez tushish usullar yordamida sonli integrallash formulalari hamda ularning yaqinlashish xususiyatlarini o'rganish va amaliy masalalarda qo'llash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Bundan tashqari, asimptotik yoyish usullari bo'yicha

olib borilgan tadqiqotlar ham alohida e'tiborga loyiq. Iserles A., Nørsett S.P., Frank W., Olver J., Stein E.M., Xiang S., Beylkin G. va Monzon L. kabi olimlar asimptotik usullarni rivojlantirish va ularni kuchli tebranuvchi integrallarni hisoblashda qo'llash bo'yicha muhim natijalarga erishdilar. Bu tadqiqotlar nafaqat nazariy jihatdan muhim, balki amaliy sohalarida, masalan, kvant fizikasi, elektromagnit nurlanish va tasvirni qayta ishlash kabi sohalarida keng qo'llaniladigan yechimlarni taqdim etadi. Ushbu usullar va tadqiqotlar hisoblash matematikasining rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda va kelgusida yanada murakkab masalalarni yechish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda $L_2^{(m)}$ va $W_2^{(m,m-1)}$ Gilbert fazolarida Shadimetov X.M., Milovanović G.V., Hayotov A.R., C.-O.Lee, S.Jeon, Boltayev N.D., Babayev S.S., Bozarov B.I. va Xayriyev U.N. kabi olimlar kuchli tebranuvchi integrallarni taqribiy hisoblash masalalariga bag'ishlangan chuqur ilmiy tadqiqotlar olib bordilar. Ularning asosiy maqsadi optimal kvadratur formulalarini qurish va ushbu formulalarni turli amaliy masalalarni yechishda qo'llashdan iborat bo'ldi. Ushbu tadqiqotlar nafaqat nazariy jihatdan muhim yangiliklar keltirdi, balki amaliy sohalarida sezilarli yutuqlarga ham olib keldi. Xususan, sanoat va tibbiyot sohasida kompyuter tomografiyasi texnologiyalariga oid tasvirlarni laboratoriya sharoitida yuqori aniqlikda qayta tiklash imkoniyati yaratildi. Bu yutuqlar, ayniqsa, diagnostika va sifat nazorati kabi sohalarida muhim ahamiyat kasb etdi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Hisoblash matematikasi laboratoriyasining "Gilbert fazolarida optimal kvadratur, interpolyatsion, ayirmali formulalar qurish va ularni integral tenglamalarni yechishga tatbiqlari" mavzusidagi kalendar reja doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi haqiqiy argumentli kompleks qiymatli uzluksiz funksiyalarning Gilbert fazolarida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalarni qurish, ularning xatolik funksionallari normalarni hisoblashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sobolevning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulaning xatolik funksionalining normasini analitik ko'rinishini topish;

Gilbertning haqiqiy argumentli kompleks qiymatli $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlari uchun chiziqli tenglamalar sistemasini olish;

haqiqiy argumentli kompleks qiymatli funksiyalarning $L_2^{(2)}$ va $W_2^{(2,1)}$ Gilbert fazolarida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalarning xatolik funksionallari normalariga minimum qiymat beruvchi koeffitsiyentlarning oshkor formulalarini topish;

$L_2^{(2)}$ va $W_2^{(2,1)}$ Gilbert fazolarida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar xatoliklarini baholash;

Sobolevning $L_2^{(3)}$ fazosida optimal koeffitsiyentlarning analitik formulalarini topish.

Tadqiqotning obyekti Gilbert fazolari, sonli integrallash formulalari, diskret argumentli funksiyalar, chiziqli funksionallar, chiziqli tenglamalar sistemasidan iborat.

Tadqiqotning predmeti eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formula, xatolik funksionali, ekstremal funksiya, differensial operatorning diskret analogi, diskret Viner-Xopf tenglamalar sistemasi, optimal koeffitsiyentlar, xatolik funksionali normasidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida hisoblash matematikasi, funksional analiz, hamda differensial tenglamalar nazariyasi, umumlashgan funksiyalar, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Sobolevning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulaning xatolik funksionali normasining analitik ko‘rinishi topilgan;

Gilbertning haqiqiy argumentli kompleks qiymatli $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlari uchun chiziqli tenglamalar sistemasi olingan;

haqiqiy argumentli kompleks qiymatli funksiyalarning $L_2^{(2)}$ va $W_2^{(2,1)}$ Gilbert fazolarida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalarning xatolik funksionallari normalariga minimum qiymat beruvchi koeffitsiyentlarning oshkor formulalari topilgan;

$L_2^{(2)}$ va $W_2^{(2,1)}$ Gilbert fazolarida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar xatoliklari optimal koeffitsiyentlar yordamida yuqoridan baholangan;

Sobolevning $L_2^{(3)}$ fazosida optimal koeffitsiyentlarning analitik formulalari uning diskret operatori yordamida topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilgan eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar o‘ng tomondan tasodifiy senzuralanish modelida ikki o‘lchovli ishonchlilik funksiyasi uchun eksponensial, ko‘paytmali va darajali tipdagi baholarni asoslashda qo‘llanilgan;

eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar yordamida gaz tarmoqlarini simulyatsiya qilishning samarali modellari uchun integral munosabatlarni taqribiy yechishda qo‘llanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kvadratur formulalar nazariyasi, hisoblash matematikasi, funksional analiz, diskret argumentli funksiyalar nazariyasi metodlarini qo‘llanilganligi, hamda matematik mulohazalarning qat’iyligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ma’lum Gilbert fazolarida Furye koeffitsiyentlarini taqribiy

hisoblash uchun vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar qurish algoritmi va qurilgan formulalarning yaqinlashish tezligi yuqoriligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qurilgan optimal kvadratur formulalar kvant kimyosi, tasvir tahlili, elektrodinamika, kompyuter tomografiyasi, suyuqliklar mexanikasi, matematik fizika, elektron texnika, akustik va elektro magnit nurlanish kabi masalalarini kuchli tebranuvchi integrallar yordamida taqribiy yechishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

$L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida qurilgan optimal kvadratur formula UZB-Ind-2021-97 raqamli "Bog'liq to'liq bo'lmagan ko'p o'lchovli ma'lumotlar uchun amaliy statistik muammolar" mavzusidagi amaliy loyihasida o'ng tomondan tasodifiy senzurlanish modelida ikki o'lchovli ishonchlilik funksiyasini baholasgda qo'llanilgan. (M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat Universiteti Toshkent filiali, 2025 yil 02 maydagi 01-01-73-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, o'ng tomondan tasodifiy senzurlanish modelida ikki o'lchovli ishonchlilik funksiyasi uchun eksponensial, ko'paytmali va darajali tipdagi baholarni asoslashga imkon bergan;

Furye integrallarini sonli hisoblash uchun qurilgan optimal formuladan 2022-2023 yillarda Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan IL-5321091543 raqamli "Gaz tarmoqlarining topologik modelini yaratish va simulyatsiya qilish" mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda, ya'ni loyihada gaz tarmoqlarining topologik modelini yaratishda va simulyatsiya qilishda foydalanilgan. (Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, 2025-yil 27-yanvardagi 305/05-2 sonli ma'lumotnomasi). Natijada gaz tarmoqlarini simulyatsiya qilishning samarali modellari uchun integral munosabatlarni taqribiy yechish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 9 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy va 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mos

kelishi asoslangan. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha chet eldagi ilmiy tadqiqotlarning qisqasha ma'lumoti va muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqotning maqsad, vazifalari shakllantirilgan, uning ob'yekti va predmeti ko'rsatilgan, tadqiqotning amaliy natijalari va ilmiy yangiliklari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining qo'llanilishi, dissertatsiya tuzilishi va nashr qilingan ilmiy ishlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Ushbu dissertatsiyaning **“Eksponensial vaznli Ermit tipidagi optimal kvadratur formulalarni qurish”** nomli birinchi bobi kirish xarakteriga ega bo'lib, bu bobning birinchi paragrafida kuchli tebranuvchi haqiqiy argumentli kompleks qiymatli uzluksiz funksiyalar fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalarni qurish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar haqida so'z boradi. Birinchi bobning ikkinchi paragrafida umumiy ko'rinishdagi Ermit tipidagi optimal kvadratur formulalarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lib ushbu dissertatsiya ishi $p(x) = e^{2\pi i \omega x}$ vaznli optimal kvadratur formulalar qurishga bag'ishlangan.

Biz quyidagi ko'rinishdagi kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \varphi(x) dx \cong \sum_{i=0}^{\alpha} \sum_{\beta=0}^N C_i[\beta] \varphi^{(i)}(x_{\beta}), \quad \alpha = 0, 1, \dots, m-1. \quad (1)$$

Bu yerda turli chiziqli fazolarda, xususan, Gilbert fazolarida (1)-ko'rinishdagi hosilali optimal kvadratur formulalarni qurish muammosi paydo bo'ladi. Bu muammo hisoblash matematikasi nuqtai nazaridan yangi va qiziqarlidir. Ushbu muammoni dastlab biz $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida yechish bilan shug'ullanamiz. Ushbu fazo quyidagicha ta'riflanadi

$$L_2^{(m)}(0,1) = \{ \varphi : [0,1] \rightarrow \mathbb{C} \mid \varphi^{(m-1)} - \text{absolyut uzluksiz}, \varphi^{(m)} \in L_2(0,1) \}.$$

Ushbu fazoda ikkita φ va ψ funksiyalarning skalyar ko'paytmasi

$$\langle \varphi, \psi \rangle_{L_2^{(m)}} = \int_0^1 \varphi^{(m)}(x) \overline{\psi^{(m)}}(x) dx$$

tenglik bilan aniqlanadi, bunda $\overline{\psi}$ bu ψ funksiyaga kompleks qo'shma funksiya. Bu fazoda φ funksiyaning normasi esa mos ravishda

$$\| \varphi \|_{L_2^{(m)}(0,1)} = \langle \varphi, \varphi \rangle_{L_2^{(m)}}^{\frac{1}{2}} = \left(\int_0^1 \varphi^{(m)}(x) \overline{\varphi^{(m)}}(x) dx \right)^{\frac{1}{2}}$$

formula bilan aniqlanadi.

Ushbu fazoda quyidagi ko'rinishdagi vaznli, hosilali kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \varphi(x) dx \cong \sum_{\alpha=0}^{m-1} \sum_{\beta=0}^N d_{\alpha}[\beta] \varphi^{(\alpha)}(h\beta), \quad (2)$$

bu yerda $e^{2\pi i \omega x}$ - vazn funksiyasi, $h = 1/N$, N - biror natural son, $i^2 = -1$, $d_{\alpha}[\beta]$ - (2)-kvadratur formulaning ko'effitsiyentlari, $\omega \in \mathbb{R}$.

Integral va kvadratur yig'indi orasidagi quyidagi ayirma (2)-kvadratur formulaning xatoligi deyiladi

$$(\ell, \varphi) = \int_{-\infty}^{\infty} \ell(x) \varphi(x) dx = \int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \varphi(x) dx - \sum_{\alpha=0}^{m-1} \sum_{\beta=0}^N d_{\alpha}[\beta] \varphi^{(\alpha)}(h\beta). \quad (3)$$

Ushbu ayirmaga mos xatolik funksionali quyidagicha

$$\ell(x) = e^{2\pi i \omega x} \varepsilon_{[0,1]}(x) - \sum_{\alpha=0}^{m-1} \sum_{\beta=0}^N (-1)^{\alpha} d_{\alpha}[\beta] \delta^{(\alpha)}(x - h\beta), \quad (4)$$

bu yerda $\varepsilon_{[0,1]}(x)$ funksiya $[0,1]$ kesmaning xarakteristik funksiyasi, $\delta(x)$ – Dirakning delta-funksiyasi.

Yuqorida keltirilgan $\ell(x)$ xatolik funksionali $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida aniqlanganligi sababli quyidagi shartlar bajarilishi kerak

$$(\ell, x^{\alpha}) = 0, \quad \alpha = 0, 1, \dots, m-1. \quad (5)$$

Ushbu tengliklar (2)-kvadratur formulaning darajasi $m-1$ dan oshmaydigan barcha algebraik ko'phadlarga aniqligini ta'minlaydi.

Koshi-Shvars tengsizligiga asosan quyidagini olamiz

$$|(\ell, \varphi)| \leq \|\ell\|_{L_2^{(m)*}(0,1)} \cdot \|\varphi\|_{L_2^{(m)}(0,1)}.$$

Bu (3)-xatolikning absolyut qiymati $\ell(x)$ xatolik funksionalining normasi yordamida yuqoridan baholanishini bildiradi.

Bundan quyidagi masala kelib chiqadi.

1-masala. Ushbu $L_2^{(m)*}(0,1)$ fazosida (2)-ko'rinishdagi kvadratur formulaning $\ell(x)$ xatolik funksionali normasi ko'rinishini topish.

Bunda xatolik funksionali $d_{\alpha}[\beta]$ koefitsiyentlarga bog'liq. Optimal kvadratur formula qurishda tugun nuqtalar fiksirlangan deb olinadi va normaga eng kichik qiymat beruvchi koefitsiyentlar qidiriladi. Bundan esa quyidagi masala kelib chiqadi.

2-masala. Xatolik funksionali $\ell(x)$ ning normasiga eng kichik qiymat beruvchi $d_{\alpha}[\beta]$ koefitsiyentlarni topish.

Topilgan $d_{\alpha}[\beta]$ koefitsiyentlar (2)-kvadratur formulaning *optimal koefitsiyentlari* deyiladi va $\dot{d}_{\alpha}[\beta]$ kabi belgilanadi. Ushbu koefitsiyentlarga ega (2)-kvadratur formula *optimal kvadratur formula* deyiladi.

1-masalani yechish uchun S.L.Sobolev tomonidan kiritilgan ekstremal funksiya tushunchasidan foydalanamiz.

1-ta'rif. Quyidagi tenglikni

$$(\ell, \psi_{\ell}) = \|\ell\|_{L_2^{(m)*}(0,1)} \cdot \|\psi_{\ell}\|_{L_2^{(m)}(0,1)}$$

qanoatlantiruvchi ψ_{ℓ} funksiyaga ℓ funksionalning **ekstremal funksiyasi** deb ataladi.

Gilbert fazosidagi chiziqli uzluksiz funksionalning umumiy ko'rinishi haqidagi Riss teoremasidan foydalanib $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida aniqlangan ixtiyoriy

chiziqli uzluksiz funksional uchun ushbu fazoda yagona ψ_ℓ element mavjud bo‘lib, barcha $\varphi(x) \in L_2^{(m)}(0,1)$ uchun

$$(\ell, \varphi) = \langle \psi_\ell, \varphi \rangle_{L_2^{(m)}} \quad \text{va} \quad \|\ell\|_{L_2^{(m)*}} = \|\psi_\ell\|_{L_2^{(m)}}$$

tengliklar o‘rinli bo‘ladi. Yuqoridagi ta’rif va Riss teoremasiga asosan quyidagi tenglikka ega bo‘lamiz

$$\|\ell\|_{L_2^{(m)*}(0,1)}^2 = (\ell, \psi_\ell).$$

$L_2^{(m)}$ fazosida $\ell(x)$ xatolik funksionaliga mos keluvchi ψ_ℓ ekstremal funksiya S.L.Sobolev tomonidan aniqlangan bo‘lib quyidagi ko‘rinishda

$$\psi_\ell(x) = (-1)^m \bar{\ell}(x) * G_m(x) + P_{m-1}(x),$$

bu yerda $G_m(x)$ funksiya $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}}$ differensial operatorning fundamental yechimi.

Bundan quyidagi teorema kelib chiqadi.

1-teorema. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosidagi (2)-kvadratur formulaning (4) xatolik funksionali normasining kvadrati uchun quyidagi formula o‘rinli:

$$\begin{aligned} & \|\ell(x) | L_2^{(m)*}(0,1)\|^2 = \\ & (-1)^m \left[\sum_{\alpha=0}^{m-1} \sum_{p=0}^{m-1} \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N (-1)^\alpha \left(d_p^R[\beta] d_\alpha^R[\gamma] + d_p^I[\beta] d_\alpha^I[\gamma] \right) \frac{(h\beta - h\gamma)^{2m-1-\alpha-p} \text{sign}(h\beta - h\gamma)}{2(2m-1-\alpha-p)!} - \right. \\ & \quad - 2 \sum_{\alpha=0}^{m-1} \sum_{\beta=0}^N (-1)^\alpha \int_0^1 \left(d_\alpha^R[\beta] \cos 2\pi\omega x + d_\alpha^I[\beta] \sin 2\pi\omega x \right) \frac{(x-h\beta)^{2m-1-\alpha}}{2(2m-1-\alpha)!} \text{sign}(x-h\beta) dx + \\ & \quad \left. + \int_0^1 \int_0^1 \cos[2\pi\omega(x-y)] \frac{(x-y)^{2m-1} \text{sign}(x-y)}{2(2m-1)!} dx dy \right], \end{aligned} \quad (6)$$

bunda $d_\alpha[\beta] = d_\alpha^R[\beta] + id_\alpha^I[\beta]$, $\alpha = \overline{0, m-1}$.

$L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida 1-masala yechildi. Keyingi paragrafda 2-masalani yechish algoritmi berilgan.

Dissertatsiyaning **“Sobolev fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar qurish”** deb nomlangan ikkinchi bobi haqiqiy argumentli kompleks qiymatli uzluksiz funksiyalar fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalarni qurish, ularning xatolik funksionallari normalarini hisoblashga bag‘ishlangan.

Bunda biz (2) kvadratur formulada $\alpha=1$ bo‘lgan holdan boshlaymiz. Bunda $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida quyidagi kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \varphi(x) dx \cong \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] \varphi(h\beta) + \sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] \varphi'(h\beta), \quad (7)$$

bu yerda $e^{2\pi i \omega x}$ - vazn funksiyasi, $d_0[\beta]$ – ma’lum koeffitsiyentlar, $d_1[\beta]$ – noma’lum koeffitsiyentlar, $h=1/N$, N -natural son, $i^2 = -1$, $\forall \omega \in \square$, $\varphi(x) \in L_2^{(2)}(0,1)$.

Yuqorida berilgan (7) kvadratur formulaga quyidagi xatolik funksionali mos keladi

$$\ell(x) = e^{2\pi i \omega x} \varepsilon_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] \delta(x - h\beta) + \sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] \delta'(x - h\beta). \quad (8)$$

Shuningdek, quyidagi ayirma (7) kvadratur formulaning xatoligi

$$(\ell, \varphi) = \int_{-\infty}^{\infty} \ell(x) \varphi(x) dx = \int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \varphi(x) dx - \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] \varphi(h\beta) - \sum_{\beta=0}^N d_1[\beta] \varphi'(h\beta).$$

Bunda ℓ xatolik funksionali

$$(\ell, x) = 0 \quad (9)$$

shartni qanoatlantiradi.

(7) kvadratur formulaga mos keluvchi (8) xatolik funksionali normasining kvadratini (6) ifodadan $m = 2$ bo'lganda hosil qilinadi. Hosil bo'lgan $\|\ell\|^2$ ifoda (9) shartda minimum qiymat beruvchi $d_1^R[\beta]$ va $d_1^I[\beta]$ koefitsiyentlarni topish uchun quyidagi Lagranj funksiyasini tuzib olamiz

$$\begin{aligned} \Psi(d_1^R[0], d_1^R[1], \dots, d_1^R[N], d_1^I[0], d_1^I[1], \dots, d_1^I[N], \lambda^R, \lambda^I) = \\ = \|\ell\|^2 - 2\lambda^R \left(\int_0^1 \cos 2\pi \omega x \cdot x dx - \sum_{\beta=0}^N d_0^R[\beta] \cdot (h\beta) - \sum_{\beta=0}^N d_1^R[\beta] \right) - \\ - 2\lambda^I \left(\int_0^1 \sin 2\pi \omega x \cdot x dx - \sum_{\beta=0}^N d_0^I[\beta] \cdot (h\beta) - \sum_{\beta=0}^N d_1^I[\beta] \right). \end{aligned} \quad (10)$$

Ushbu Lagranj funksiyasidan $d_1^R[\beta]$, $d_1^I[\beta]$, $(\beta = 0, \dots, N)$, λ^R va λ^I koefitsiyentlar bo'yicha xususiy hosilalarini olib, ularni mos ravishda nolga tenglab, $d_1[\beta] = d_1^R[\beta] + i d_1^I[\beta]$ va $\lambda = \lambda^R + i \lambda^I$ belgilashlardan foydalanib, (7) kvadratur formulaning koefitsiyentlari uchun quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\sum_{\gamma=0}^N d_1[\gamma] \frac{(h\beta - h\gamma) \operatorname{sign}(h\beta - h\gamma)}{2} - \lambda = F_2(h\beta, \omega), \quad \beta = 0, 1, \dots, N, \quad (11)$$

$$\sum_{\gamma=0}^N d_1[\gamma] = g_2(\omega), \quad (12)$$

bu yerda $F_2(h\beta, \omega)$ va $g_2(\omega)$ ma'lum kattaliklar.

(11) va (12) sistemaning yechimi bo'ladigan optimal koefitsiyentlar uchun quyidagi teoremlar isbotlangan.

2-teorema. Sobolevning $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida $\omega \in \mathbb{R} \setminus \{0\}$ va $\omega h \notin \mathbb{Z}$ uchun (7) ko'rinishdagi optimal kvadratur formulaning koefitsiyentlari quyidagi ko'rinishga ega:

$$d_0[0] = h \left(\frac{K_{\omega,1} e^{2\pi i \omega h}}{e^{2\pi i \omega h} - 1} - \frac{1}{2\pi i \omega h} \right),$$

$$d_0[\beta] = h K_{\omega,1} e^{2\pi i \omega h \beta}, \quad \beta = \overline{1, N-1},$$

$$d_0[N] = h \left(\frac{K_{\omega,1} e^{2\pi i \omega}}{1 - e^{2\pi i \omega h}} + \frac{e^{2\pi i \omega}}{2\pi i \omega h} \right),$$

$$d_1[0] = h^{-1} \left(F_2(h, \omega) - F_2(0, \omega) + \frac{h}{2} g_2(\omega) \right),$$

$$d_1[\beta] = h^{-1} \left(F_2(h(\beta-1), \omega) - 2F_2(h\beta, \omega) + F_2(h(\beta+1), \omega) \right), \quad \beta = \overline{1, N-1},$$

$$d_1[N] = h^{-1} \left(F_2((1-h), \omega) - F_2(1, \omega) + \frac{h}{2} g_2(\omega) \right),$$

bu yerda $F_2(h\beta, \omega)$ va $g_2(\omega)$ lar ma'lum kattaliklar.

Endi $\omega h \in \mathbf{Z}$ va $\omega \neq 0$ bo'lganda quyidagi natijani olamiz.

3-teorema. Sobolevning $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida $\omega h \in \mathbf{Z}$ va $\omega \neq 0$ uchun (7) ko'rinishdagi optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{aligned} d_\alpha[0] &= \frac{(-1)^{\alpha+1}}{(2\pi i \omega)^{\alpha+1}}, \\ d_\alpha[\beta] &= 0, \quad \beta = \overline{1, N-1}, \\ d_\alpha[N] &= \frac{(-1)^\alpha}{(2\pi i \omega)^{\alpha+1}}, \quad \alpha = 0, 1. \end{aligned} \tag{13}$$

Xatolik funksionali normasi uchun quyidagi teorema o'rinni.

4-teorema. Sobolevning $L_2^{(2)}(0,1)$ fazosida (13) koeffitsiyentlar bilan (7) optimal kvadratur formulaning (8) xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagi ko'rinishga ega:

$$\|\ell\|_{L_2^{(2)*}}^2 = \frac{1}{16\pi^4 \omega^4}$$

bu yerda $h = \frac{1}{N}$, $N \in \mathbb{N}$, $\omega h \in \mathbf{Z}$, $\omega \neq 0$.

Endi (2) kvadratur formulada $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida quyidagi kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \varphi(x) dx \cong \sum_{\alpha=0}^2 \sum_{\beta=0}^N d_\alpha[\beta] \varphi^{(\alpha)}(h\beta), \tag{14}$$

bu kvadratur formula optimal koeffitsiyentlarni $\omega \in \mathbb{N} \setminus \{0\}$ va $\omega h \notin \mathbb{N}$, hamda $\omega h \in \mathbf{Z}$ va $\omega \neq 0$ bo'lganda analitik ko'rinishlari topilgan, buning uchun quyidagi teoremlar o'rinni.

5-teorema. Sobolevning $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida $\omega \in \mathbb{R} \setminus \{0\}$ va $\omega h \notin \mathbb{Z}$ uchun (14) ko‘rinishdagi optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$d_2[0] = h^{-1} \left[V_3(h) - V_3(0) + \frac{h}{4} \left(q_3(\omega) - \sum_{\gamma=0}^N \left(d_0[\gamma](h\gamma)^2 + 2d_1[\gamma](h\gamma) \right) \right) \right],$$

$$d_2[\beta] = h^{-1} \left[V_3(h(\beta-1)) - 2V_3(h\beta) + V_3(h(\beta+1)) \right], \quad \beta = 1, 2, \dots, N-1.$$

$$d_2[N] = h^{-1} \left[V_3(1-h) - V_3(1) + \frac{h}{4} \left(q_3(\omega) - \sum_{\gamma=0}^N \left(d_0[\gamma](h\gamma)^2 + 2d_1[\gamma](h\gamma) \right) \right) \right].$$

bu yerda $V_3(h\beta)$, $q_3(\omega)$, $d_0[\gamma]$ va $d_1[\gamma]$ lar ma’lum kattaliklar.

Endi $\omega h \in \mathbb{Z}$, $\omega \neq 0$ bo‘lganda $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida optimal koeffitsiyentlarning oshkor ko‘rinishi uchun quyidagi teorema o‘rinli.

6-teorema. Sobolevning $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida $\omega h \in \mathbb{Z}$ va $\omega \neq 0$ uchun (14) ko‘rinishdagi kvadratur formulaning optimal koeffitsiyentlari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$d_\alpha[0] = \frac{(-1)^{\alpha+1}}{(2\pi i \omega)^{\alpha+1}},$$

$$d_\alpha[\beta] = 0, \quad \beta = 1, N-1,$$

$$d_\alpha[N] = \frac{(-1)^\alpha}{(2\pi i \omega)^{\alpha+1}}, \quad \alpha = 0, 1, 2.$$

Dissertatsiyaning “**Gilbertning $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar qurish**” deb nomlangan uchinchi bobida $W_2^{(2,1)}$ Gilbert fazosida optimal kvadratur formulalar qurishga bag‘ishlangan.

Faraz qilaylik, $\varphi(x)$ funksiyalar birinchi tartibli hosilasi absolyut uzluksiz, ikkinchi tartibli hosilasi kvadrati bilan integrallanuvchi, haqiqiy argumentli kompleks qiymatli funksiyalar bo‘lsin. Bu funksiyalar to‘plami Gilbert fazosi $W_2^{(2,1)}(0,1)$ ni tashkil qiladi. Bu fazoda ikkita φ va ψ funksiyalarning skalyar ko‘paytmasi

$$\langle \varphi, \psi \rangle = \int_0^1 (\varphi''(x) + \varphi'(x)) (\overline{\psi''(x)} + \overline{\psi'(x)}) dx$$

tenglik bilan aniqlanadi, bunda $\overline{\psi}$ bu ψ funksiyaga kompleks qo‘shma funksiya. Bu fazoda φ funksiyaning normasi esa mos ravishda

$$\|\varphi\|_{W_2^{(2,1)}(0,1)}^2 = \langle \varphi, \varphi \rangle = \int_0^1 (\varphi''(x) + \varphi'(x)) (\overline{\varphi''(x)} + \overline{\varphi'(x)}) dx$$

formula bilan aniqlanadi.

Ushbu fazoda quyidagi ko‘rinishdagi vaznli, hosilali kvadratur formulani qaraymiz

$$\int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \varphi(x) dx \cong \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] \varphi(h\beta) + \sum_{\beta=0}^N d_{1,W}[\beta] \varphi'(h\beta), \quad (15)$$

bu yerda $e^{2\pi i \omega x}$ - vazn funksiyasi, $h=1/N$, N - natural son, $i^2 = -1$, $\omega \in \mathbb{R}$, $d_0[\beta]$, $d_{1,W}[\beta]$ esa (15) kvadratur formulaning ko‘effitsiyentlari, ya’ni $d_0[\beta]$ – ma’lum ko‘effitsiyentlar, $d_{1,W}[\beta]$ – noma’lum ko‘effitsiyentlar.

Integral va kvadratur yig‘indi orasidagi quyidagi

$$(\ell_W, \varphi) = \int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \varphi(x) dx - \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] \varphi(h\beta) - \sum_{\beta=0}^N d_{1,W}[\beta] \varphi'(h\beta)$$

ayirmaga (15) kvadratur formulaning xatoligi deyiladi. Bu xatolikka quyidagi xatolik funksionali mos keladi:

$$\ell_W(x) = e^{2\pi i \omega x} \varepsilon_{[0,1]}(x) - \sum_{\beta=0}^N d_0[\beta] \delta(x - h\beta) + \sum_{\beta=0}^N d_{1,W}[\beta] \delta'(x - h\beta), \quad (16)$$

bu yerda ℓ_W xatolik funksionali

$$(\ell_W, 1) = 0, \quad (\ell_W, e^{-x}) = 0 \quad (17)$$

shartlarni qanoatlantiradi.

Bizga ma’lumki, Koshi-Shvars tengsizligiga asosan (15) kvadratur formula xatoligining absolyut qiymati φ funksiyaning va ℓ_W xatolik funksionalining normalarni ko‘paytmasi yordamida yuqoridan baholanadi, ya’ni

$$|(\ell_W, \varphi)| \leq \|\ell_W\|_{W_2^{(2,1)*}(0,1)} \cdot \|\varphi\|_{W_2^{(2,1)}(0,1)}.$$

Bu bobning asosiy maqsadi S.L.Sobolev metodidan foydalanib, $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida (15) ko‘rinishdagi kvadratur formulalar qurishdan iborat, ya’ni berilgan $d_0[\beta]$ ko‘effitsiyentlar uchun quyidagi

$$\|\ell_W\|_{W_2^{(2,1)*}(0,1)}$$

kattalikni minimumga erishtiruvchi $d_{1,W}[\beta]$ ko‘effitsiyentlarni (agar mavjud bo‘lsa) topishdir.

Shinung uchun $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida (15) ko‘rinishdagi optimal kvadratur formulalarni qurish uchun ushbu ishning I bobida keltirilgan, ya’ni Sobolevning $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida qo‘yilgan 1 va 2 masalalarni $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida yechishimiz kerak. Buning uchun biz (16) xatolik funksionalining ekstremal funksiyasidan foydalanib, uning normasining kvadratini $W_2^{(2,1)*}(0,1)$ fazosida hisoblaymiz.

Bu yerda $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida ℓ_W xatolik funksionaliga mos keluvchi ψ_{ℓ_W} ekstremal funksiya quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\psi_{\ell_W}(x) = \overline{\ell_W}(x) * G_2(x) + P_0 + P_1 e^{-x}$$

bu yerda P_0, P_1 – kompleks sonlar,

$$G_2(x) = \frac{\text{sign} x}{2} \left(\frac{e^x - e^{-x}}{2} - x \right),$$

$\overline{\ell_w}$ bu ℓ_w funksionalga kompleks qo'shma funksional.

ℓ_w ning normasi uchun quyidagi o'rinli.

7-teorema. $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosidagi (15) kvadratur formulaning (16) xatolik funksionali normasining kvadrati uchun quyidagi formula o'rinli:

$$\begin{aligned} & \left\| \ell_w(x) | W_2^{(2,1)*}(0,1) \right\|^2 = \\ & = - \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N \left(d_{1,w}^R[\beta] d_{1,w}^R[\gamma] + d_{1,w}^I[\beta] d_{1,w}^I[\gamma] \right) \frac{\text{sign}(h\beta - h\gamma)}{2} \left(\frac{e^{h\beta - h\gamma} - e^{-(h\beta - h\gamma)}}{2} \right) + \\ & + 2 \sum_{\beta=0}^N \int_0^1 \left(d_{1,w}^R[\beta] \cos 2\pi\omega x + d_{1,w}^I[\beta] \sin 2\pi\omega x \right) \frac{\text{sign}(x - h\beta)}{2} \left(\frac{e^{x - h\beta} + e^{-(x - h\beta)}}{2} - 1 \right) dx + \\ & + 2 \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N \left(\left(d_{1,w}^R[\beta] d_0^R[\gamma] + d_{1,w}^I[\beta] d_0^I[\gamma] \right) \frac{\text{sign}(h\beta - h\gamma)}{2} \left(\frac{e^{h\beta - h\gamma} + e^{-(h\beta - h\gamma)}}{2} - 1 \right) + \right. \\ & + \sum_{\beta=0}^N \sum_{\gamma=0}^N \left(d_0^R[\beta] d_0^R[\gamma] + d_0^I[\beta] d_0^I[\gamma] \right) \frac{\text{sign}(h\beta - h\gamma)}{2} \left(\frac{e^{h\beta - h\gamma} - e^{-(h\beta - h\gamma)}}{2} - (h\beta - h\gamma) \right) - \\ & - 2 \sum_{\beta=0}^N \int_0^1 \left(d_0^R[\beta] \cos 2\pi\omega x + d_0^I[\beta] \sin 2\pi\omega x \right) \frac{\text{sign}(x - h\beta)}{2} \left(\frac{e^{x - h\beta} - e^{-(x - h\beta)}}{2} - (x - h\beta) \right) dx + \\ & \left. + \int_0^1 \int_0^1 \cos(2\pi\omega(x - y)) \frac{\text{sign}(x - y)}{2} \left(\frac{e^{x - y} - e^{-(x - y)}}{2} - (x - y) \right) dx dy \right). \end{aligned}$$

ℓ_w xatolik funksionali normasining kvadratiga (17) shartlarda minimum beradigan $d_{1,w}[\beta]$ koeffitsiyentlar uchun quyidagi sistema olingan

$$\sum_{\gamma=0}^N d_{1,w}[\gamma] G_1(h\beta - h\gamma) + \lambda e^{-h\beta} = F_{2,w}(h\beta, \omega), \quad \beta = 0, 1, \dots, N,$$

$$\sum_{\gamma=0}^N d_{1,w}[\gamma] e^{-h\gamma} = \mu_2(\omega),$$

$$\text{bu yerda } G_1(h\beta) = \frac{\text{sign}(h\beta)}{2} \left(\frac{e^{h\beta} - e^{-h\beta}}{2} \right),$$

$$F_{2,w}(h\beta, \omega) = \int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \cdot \frac{\text{sign}(x - h\beta)}{2} \left(\frac{e^{x - h\beta} + e^{-(x - h\beta)}}{2} - 1 \right) dx +$$

$$+ \sum_{\gamma=0}^N d_0[\gamma] \cdot \frac{\text{sign}(h\beta - h\gamma)}{2} \left(\frac{e^{h\beta - h\gamma} + e^{-(h\beta - h\gamma)}}{2} - 1 \right),$$

$$\mu_2(\omega) = - \int_0^1 e^{2\pi i \omega x} \cdot e^{-x} dx + \sum_{\gamma=0}^N d_0[\gamma] \cdot e^{-h\gamma}.$$

Bu bobning asosiy natijalari $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida (15) ko‘rinishdagi optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlari va optimal kvadratur formulalarning xatoligi haqidagi teoremlardir.

Quyidagilar o‘rinli.

8-teorema. Gilbertning $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida $\omega \in \mathbb{C} \setminus \{0\}$ va $\omega h \notin \mathbb{Z}$ uchun (15) ko‘rinishdagi optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\begin{aligned} d_0[0] &= h \left(\frac{K_{\omega,1} e^{2\pi i \omega h}}{e^{2\pi i \omega h} - 1} - \frac{1}{2\pi i \omega h} \right), \\ d_0[\beta] &= h K_{\omega,1} e^{2\pi i \omega h \beta}, \quad \beta = \overline{1, N-1}, \\ d_0[N] &= h \left(\frac{K_{\omega,1} e^{2\pi i \omega}}{1 - e^{2\pi i \omega h}} + \frac{e^{2\pi i \omega}}{2\pi i \omega h} \right), \\ d_{1,w}[0] &= \frac{\mu_2(\omega)}{2} + \frac{F_{2,w}(h\beta, \omega) - e^{-h} F_{2,w}(0, \omega)}{\text{sh}(h)}, \\ d_{1,w}[\beta] &= \frac{F_{2,w}(h\beta + h, \omega) + F_{2,w}(h\beta - h, \omega)}{\text{sh}(h)} - 2 \text{cth}(h) F_{2,w}(h\beta, \omega), \quad \beta = \overline{1, N-1}, \\ d_{1,w}[N] &= \frac{e\mu_2(\omega)}{2} + \frac{F_{2,w}(1-h, \omega) - e^h F_{2,w}(1, \omega)}{\text{sh}(h)}, \end{aligned}$$

bu yerda $F_{2,w}(h\beta, \omega)$ va $\mu_2(\omega)$ lar ma’lum kattaliklar.

9-teorema. Gilbertning $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida $\omega h \in \mathbb{Z}$ va $\omega \neq 0$ bo‘lganda (15) ko‘rinishdagi optimal kvadratur formulaning koeffitsiyentlari quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\begin{aligned} d_0[0] &= -\frac{1}{2\pi i \omega}, \\ d_0[\beta] &= 0, \quad \beta = \overline{1, N-1}, \\ d_0[N] &= \frac{1}{2\pi i \omega}, \\ d_{1,w}[0] &= \frac{1}{2\pi i \omega(2\pi i \omega - 1)} + \frac{1}{\pi i \omega(4\pi^2 \omega^2 + 1)(e^h + 1)}, \\ d_{1,w}[\beta] &= \frac{1 - e^h}{\pi i \omega(4\pi^2 \omega^2 + 1)(e^h + 1)}, \quad \beta = \overline{1, N-1}, \\ d_{1,w}[N] &= -\frac{1}{2\pi i \omega(2\pi i \omega - 1)} - \frac{e^h}{\pi i \omega(4\pi^2 \omega^2 + 1)(e^h + 1)}. \end{aligned} \tag{18}$$

Bu yerda (15) formulaga mos keluvchi (16) xatolik funksionallari normasining kvadrati uchun $\omega h \in \mathbb{Z}$, $\omega \neq 0$ bo‘lganda quyidagi teorema o‘rinli.

10-teorema. Gilbertning $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazosida (18) koeffitsiyentlar bilan (15) optimal kvadratur formulaning (16) xatolik funksionali normasining kvadrati quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\|\ell_w\|_{W_2^{(2,1)*}}^2 = \frac{1}{2\pi^2\omega^2(4\pi^2\omega^2+1)} \left(\frac{1}{2} - \frac{(e^h-1)N}{(4\pi^2\omega^2+1)(e^h+1)} \right),$$

bu yerda $h = \frac{1}{N}$, $N \in \mathbb{N}$, $\omega h \in \mathbb{Z}$, $\omega \neq 0$ va $\omega = kN$.

XULOSA

Ushbu dissertatsiya ishida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalarni qurish masalasi qaralgan. Bunda S.L.Sobolev tomonidan taklif etilgan usuldan foydalanib haqiqiy argumentli kompleks qiymatli uzluksiz funksiyalar fazosida eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar qurildi va uni topilgan koeffitsiyentlarning analitik formulalaridan foydalanib xatoligining aniq yuqori bahosi olindi.

Dissertatsiya ishida quyidagi asosiy natijalar olindi:

1. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida eksponensial vaznli Ermit tipidagi optimal kvadratur formulaning xatoligi yuqoridan xatolik funksionali normasi bilan chegaralanganligi sababli, ekstremal funksiyadan foydalanib xatolik funksionali normasi kvadrating analitik ko‘rinishi topilgan.

2. Eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlari uchun Viner-Xopf tipidagi diskret sistema olingan.

3. $L_2^{(m)}(0,1)$ fazosida optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlari uchun ixtiyoriy m da algoritm berilgan.

4. $L_2^{(2)}(0,1)$ va $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazolarida $\omega \in \mathbb{R} \setminus \{0\}$ va $\omega h \notin \mathbb{R}$, hamda $\omega h \in \mathbb{Z}$ va $\omega \neq 0$ bo‘lgan hollar uchun eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlarining oshkor ko‘rinishi topilgan.

5. $L_2^{(2)}(0,1)$ va $W_2^{(2,1)}(0,1)$ fazolarida $\omega h \in \mathbb{Z}$, $\omega \neq 0$ bo‘lganda eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar xatolik funksionallari normasining kvadrati hisoblangan.

6. $L_2^{(3)}(0,1)$ fazosida $\omega \in \mathbb{R} \setminus \{0\}$, $\omega h \notin \mathbb{R}$ va $\omega h \in \mathbb{Z}$, $\omega \neq 0$ bo‘lgan hollar uchun eksponensial vaznli, hosilali optimal kvadratur formulalar koeffitsiyentlarining analitik formulalari olingan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.FM.01.02
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

ИНСТИТУТ МАТЕМАТИКИ ИМЕНИ В.И.РОМАНОВСКОГО

ДАВЛАТОВА ФАТИМА ИСРАИЛОВНА

**ОПТИМАЛЬНАЯ АППРОКСИМАЦИЯ ИНТЕГРАЛОВ ФУРЬЕ В
ГИЛЬБЕРТОВЫХ ПРОСТРАНСТВАХ**

**01.01.03 – Вычислительная и дискретная математика
(физико-математические науки)**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №B2024.4.PhD/FM1182.

Диссертация выполнена в институте математики имени В.И.Романовского АНРУз.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (<http://ik-fizmat.nuu.uz/>) и на Информационно-образовательном портале «Ziynet» (www.ziynet.uz)

Научный руководитель:

Шадиметов Халматвай Махкамбаевич
доктор физико-математических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Нормуродов Чори Бегалиевич
доктор физико-математических наук, профессор

Болтаев Азиз Кузиевич
доктор философ по физико-математические науки (PhD), доцент

Ведущая организация:

Каракалпакский государственный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ___ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.FM.01.02 при Национальном университете Узбекистана. (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871)227-12-24, факс: (+99871) 246-53-21, e-mail: наука@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована за№____). (Адрес: 100174, г. Ташкент, Алмазарский район, ул. Университетская, 4. Тел.: (+99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(протокол рассылки №_____ от «___» _____ 2025 года).

М.М. Арипов

Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

З.Р. Рахмонов

Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.-м.н., профессор

Р.Д. Алоев

Председатель научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученой степени
доктора наук, д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В результате многочисленных научных и практических исследований, проводимых в мире, построение оптимальных квадратурных формул с экспоненциальным весом и производной в пространстве комплекснозначных непрерывных функций с действительными аргументами, приближенное вычисление и применение определенных интегралов является одним из ведущих направлений. Теория квадратурных и кубатурных формул служит основным инструментом при численном вычислении сильно осциллирующих интегралов во всем мире. Эти формулы требуют численного решения дифференциальных и интегральных уравнений, особенно в таких областях, как квантовая химия, анализ изображений, электродинамика, компьютерная томография, механика жидкости, математическая физика, электронная инженерия и электромагнитное излучение, и их реализации на практике. В этом отношении важным считается исследование производных, экспоненциально весовых, оптимальных квадратурных формул, точных для экспоненциальных функций на классе дифференцируемых функций, использование оценки погрешности формул, построенных на определенных Гильбертовых пространствах.

В мире ведутся исследования и разработки, направленные на построение экспоненциально весовых, производных, оптимальных квадратных формул с высокой точностью в Гильбертовых пространствах. В этом отношении особое внимание уделяется численному решению дифференциальных и интегральных уравнений, которые формируются во многих областях, таких как анализ изображений, электродинамика, компьютерная томография, механика жидкостей и электромагнитное излучение, построению экспоненциально весовых производных оптимальных квадратных формул в различных классах функций с использованием существующих методов и созданию методов, позволяющих с достаточной точностью вычислять решения математических задач.

В нашей республике проводятся комплексные меры по построению экспоненциально весовых, производных оптимальных квадратурных, кубатурных, интерполяционных формул, имеющих научное и практическое применение в фундаментальных науках и оценке их погрешностей в некоторых Гильбертовых пространствах, а также по разработке методов численно-аналитического решения задач анализа изображений и компьютерной томографии и достигаются определенные результаты. В Республике Узбекистан в 2020-2023 годах поставлены важные задачи по улучшению качества образования в области математических наук, повышению эффективности и практической значимости научных исследований, в том числе «Функциональный анализ, алгебра, дифференциальные уравнения, математическая физика, математическое моделирование, теория вероятностей, математическая статистика,

вычислительная математика и дискретная математика»². В реализации этих задач, в том числе по построению экспоненциально взвешенных, производных оптимальных квадратурных формул в некоторых пространствах Гилберта, большое значение имеет вычисление квадрата норм их функционалов погрешности.

